



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2022- YIL YANVAR-IYUN  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




**Sanoat statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 61-222-75-87**

## Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-iyun oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan 8864,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi\* 100,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 0,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,2 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – 4,6 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

2021- yil

B

0,5 %


2022- yil

B


0,7 %

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Ohah tosh, ming t.	88,2	123,1	34,9




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	1028,5	712,6	-315,9
Gaz kondensati, ming t.	49,6	39,9	-9,7

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

FHI, % da



2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7624,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,0 % ini tashkil etdi.


2021-yil  
yanvar-iyun

85,9 %

2022-yil  
yanvar-iyun

86,0 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yil yanvar-iyun 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 61,7 % (66,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,6 % (3,5 %) va quyi texnologiyalisi – 33,5 % (28,0 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 62,2 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 14,6 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,3 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 121,4 %) tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Aroq**



2020- y. 2021- y. 2022- y.

**Paxta chigiti**



2020- y. 2021- y. 2022- y.

**Sement**



2020- y. 2021- y. 2022- y.

**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**



2020- y. 2021- y. 2022- y.

**Kalava ip**



2020- y. 2021- y. 2022- y.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 19,4 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 29,0 % ga), 1,4 ming tonna tozalangan guruch (20,0 %), 143,7 ming tonna portlandsement (17,7 %), 27,7 ming tonna paxta chigiti (16,2 %), 8,8 ming tonna kalava ip (2,5 %), 63,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (0,1 % ) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 1755,5 ming litr aroq (6,7 %) va 1,9 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (51,7 %) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
<i>Aroq, ming litr 100 % li spirt</i>	1881,1	1755,5	-125,6
<i>Polietilen, ming t.</i>	173,1	150,2	-22,9
<i>Polipropilen, ming t.</i>	48,1	42,3	-5,8
<i>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.</i>	63,1	63,2	0,1
<i>Paxta tolasi, ming t.</i>	15,0	19,4	4,4
<i>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</i>	3,9	1,9	-2,0

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 56,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 114,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,7 % ni, fizik hajm indeksi 98,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4705,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 259,7mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,1 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1013,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 132,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 101,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 124,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1240,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 149,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 77,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1113,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,6 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,2 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2454,5	2797,0	342,5
Issqlik energiyasi, ming gkal	36,7	28,5	-8,2
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	57289,7	62122,9	4833,2

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	3551,0	4198,8	647,8
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	8012,3	9468,4	1456,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	29054,1	30752,6	1698,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 5,8 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 18,2 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 18,2 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1425,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 16,1 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-iyun

61,1 %

2022-yil  
yanvar-iyun

62,9 %

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-iyun

38,9 %

2022-yil  
yanvar-iyun

37,1 %


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 7,0 % (2021- yil yanvar-iyun oylari 6,2 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 18,3 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,9 % ni, Ellikqal'a tumani 11,7 % ni, To'rtko'l tumani 8,6 % ni, Beruniy va Xo'jayli tumanlari 7,1 % ni, Chimboy tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (111,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qorao'zak (181,6 %), Shumanay (165,9 %), Ellikqal'a (160,2 %), Chimboy (142,1 %), Amudaryo (132,5 %), Nukus (130,9 %), Mo'ynoq (125,8 %), Taxiatosh (115,6 %), Beruniy (113,8 %) hamda Xo'jayli (113,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 18,3 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 12,9 % ni, Ellikqal'a tumani 11,7 % ni, To'rtko'l 8,6 % ni, Beruniy va Xo'jayli tumanlari 7,1 % ni, Chimboy tumani 6,4 % ni tashkil etdi.



1253,5 mlrd. so'm


2020- yil

1229,6 mlrd. so'm

2021- yil

1425,1 mlrd. so'm

2022- yil



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

104,3 %

2021- yil

102,7 %

2022- yil

111,6 %

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 23,3 % ni, shuningdek, Nukus shahri 12,5 % ni Xo'jayli tumani 10,1 % ni, To'rtko'l tumani 9,3 % ni, Shumanay tumani 7,5 % ni hamda Beruniy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.

**449,4** mlrd. so'm


2020- yil

**478,3** mlrd. so'm

2021- yil

**528,6** mlrd. so'm

2022- yil



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2020- yil

96,9 %

02


2021- yil

112,7 %

03

2022- yil

109,8 %






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 21,7 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 18,4 % ni, To'rtko'l 8,2 % ni, Beruniy 7,6 % ni, Chimboy 7,1 % ni, Xo'jayli 5,3 % ni hamda Taxtako'pir 5,2 % ni tumanlari tashkil etdi.



o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,5 %), Taxiatosh (13,1 %), Qo‘ng‘irot (4,1 %), To‘rtko‘l (3,9 %), Amudaryo va Beruniy (3,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

2020- yil

6757,0 mlrd. so‘m

2021- yil

8297,4 mlrd. so‘m

2022- yil

8864,8 mlrd. so‘m



2020- yil


103,0 %

2021- yil

107,2 %

2022- yil

100,5 %



FHI, % da

mlrd. so‘m

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (14898,4 ming so'm) va Taxiatosh tumanida 15330,8 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (4533,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi




o'sish sur'ati  
ming. so'm

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 728,8 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatosh tumanida 2436,9 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida 1421,7 ming so'mni, Ellikqal'a tumanida 1006,1 ming so'mni, Shumanay tumanida 904,3 ming so'mni va Xo'jayli tumanida 803,1 ming so'mni tashkil etdi.


**Qoraqalpog'iston Respublikasi**



o'sish sur'ati  
ming. so'm

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1634,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.



### Qoraqalpogʻiston Respublikasi

2020- yil

1516,2 mlrd. soʻm

2021- yil

1556,3 mlrd. soʻm

2022- yil

1634,3 mlrd. soʻm



2020- yil

22,4 %

2021- yil


18,8 %

2022- yil

18,4 %

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda respublikada 3383 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1918 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 56,7 %) Nukus shahriga 675 tasi (20,0 %), To'rtko'l 343 tasi (10,1 %), Amudaryo 306 tasi (9,1 %), Ellikqal'a 299 tasi (8,8 %) Beruniy 295 tasi (8,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 43 ta loyiha bo'yicha 280,5 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 3,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 85 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 44,1 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining kamayganligi kuzatildi.